Sharq qo’lyozmalariga bag’ishlangan xalqaro anjuman o’tkazildi

Avval xabar qilganimizdek, joriy yil 16-19-noyabr kunlari O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Avstriya Fanlar akademiyasi Eronshunoslik instituti bilan hamkorlikda “Markaziy Osiyo Sharq qo’lyozma madaniyati: qo’lyozmalar madaniy meros va tarixiy manba” (Central Asian Islamic Manuscript Cultures: Manuscripts as Cultural Heritage and Historical Source) mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o’tkazildi. ZOOM platformasi orqali bo’lib o’tgan ushbu anjumanda nafaqat raespublikamizdan, balki Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Turkiya, Tojikiston, Qozog’iston kabi davlatlardan yetakchi soha mutaxassislari, yosh tadqiqotchilar o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjumanning yalpi majlisida O’zR FA Sharqshunoslik instituti direktori, professor Bahrom Abduhalimov so’zga chiqib anjumanni ochib berdi. Shundan so’ng, Avstriya Fanlar akademiyasi Eronshunoslik instituti direktori doktor Florian Shvarts nutq so’zlab, anjuman ishtirokchilarini qutladi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti professori Charlz Melvill, Gollandiyaning Leyden universiteti professori Yelena Paskaleva ham so’zga chiqib, anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladilar.

Anjuman doirasidagi “O’zbekistonda islom madaniyati, tarixi va san’atini o’rganishning yangi istiqbollari” mavzuidagi akademik Ubaydulla Karimov xotirasiga bag’ishlangan xalqaro anjuman maqolalari to’plamining taqdimoti bo’l o’tdi. To’plam bo’yicha Islom hamkorligi tashkiloti islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) bosh direktori professor Mahmud Erol Qilich so’zga chiqib, olib borilayotgan ilmiy hamkorlik ko’lami va ahamiyati hamda ilmiy anjuman haqida alohida to’xtaldi.

Uch kun davom etgan xalqaro anjuman ishida matnlarni tadqiq va nashr qilish, yozma madaniy merosni asrash, ularni o’rganish bo’yicha so’nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, istiqbolli loyihalar bo’yicha qiziqarli ma’ruzalar tinglandi, o’zaro fikr almashildi va muhokama qilindi.